



### NIZOMIDDIN MUHAMMAD NOMIY TERMIZIYNING HAYOTI VA FAOLIYATI TADQIQI

**Jamahmatov Karomiddin Aynillo o'g'li**

*Alisher Navoiy nomidagi*

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti (DSc)*

*Email. [jamahmatovkaromiddin@gmail.com](mailto:jamahmatovkaromiddin@gmail.com)*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.17932705>

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada ko'pchilikka hayoti va ijodiy faoliyati tanish bo'lmagan – Sayyid Nizomiddin Muhammad Ma'sum Nomiya ibn Safoiy al-Husayniy at-Termiziy hayoti, adabiy-tarixiy va ma'naviy merosi tavsifi borasida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar.** *Termiz, Hindiston, adabiy maktab, tasavvuf, tarixchi, shoir, tarixi asar, badiiy asar, adabiy manba, boburiylar.*

**Abstract.** *This article describes the life, literary, historical and spiritual heritage of Sayyid Nizamiddin Muhammad Ma'sum Nami ibn Safai al-Husaini al-Tirmizi, whose life and creative activity are not known to many.*

**Keywords.** *Termiz, India, literary school, Sufism, historian, poet, historical work, artistic work, literary source, Baburis.*

Termiziy namoyandalar va ularning bebaho merosi haqida M. Kenjabekning «Termiz tazkirasi» kitobi [Kenjabek M, 2001. 192.] diqqatga sazovor. Yosh olimlardan J.Cho'tmatov «Termizning bezavol qal'alari yoxud Termiz tarixi» [Kenjabek M, 2001. 352.] monografiyasida ilk bor arab va fors tilidagi asosiy manbalarga tayanib, Termiziy namoyandalar haqida muhim ma'lumotlarni yaxlit tarzda umumlashtirib muhim tahlil va xulosalar bilan xalqqa taqdim etdi. Shuningdek, Termiz tarixi va allomalari merosning tarqalish jug'rofiyasiga oid birlamchi ma'lumotlar «Termizlik olimlar asarlarining jahon fondlaridagi qo'lyozmalari katologi» nomli fundamental tadqiqotda o'z aksini topib, dunyo qo'lyozmalar fondida bugungi kunga qadar 1419 ortiq Termiziy mutafakkirlarning ilmiy merosi saqlanishi ko'rsatib o'tilgan [Cho'tmatov J, 2017. 352].

Biroq, yuqoridagi amalga oshirilgan ishlar orasida Termiziy va Chag'oniya mutasavvif zotlarning asarlari adabiy tahlil, orifona she'rlar poetikasi va matnii tarkibi ilmiylik mezonida mukammal o'rganilmagan. Shuning natijasida ushbu maqolada asli kelib chiqishi Termizlik bo'lgan – Sayyid Nizomiddin Muhammad Mir Ma'sum Nomiya ibn Sayyid Safoiy al-Husayniy at-Termiziyning muxtasar tarjimai holi va boy ma'naviy merosining tavsifi o'rganiladi.

**Ismi va taxallusi.** Ayrim manbalarda bu zotning asl ismi Nizomiddin Muhammad deb yozilgan bo'lsa, ba'zi manbalarda esa Mir Muhammad Sayyid Nizomiddin shakli ham uchraydi. Fors olimi Umar ibn Muhammad «Torixi Sind» asarining muqadamasida uning ismi «Sayyid Nizomiddin Muhammad Ma'sum»



ekanligini yozgan. Taxallusini esa “Nomiy”, “Husayniy”, “Termziy”, “Bhakriy” deya ko‘rsatadi. [Nomiy, 1383 h.sh.15]. Nizomiddin Muhammad “Nomiy” taxallusi borasida shunday deydi:

نامی از آن جا که فهم اوست سخن گفت

[Umar Muhammad, 1938. 17]ورنه کمالات فهم کی رسد آن جا

Mazmuni: Insonning eng oliy tafakkuri ham ushbu maqomning yuksakligini qaydan biladi? “Nomiy” esa anglab yetgan maqomidan (o‘rganilgan ilmlari va tarbisi asosida) so‘zladi.

Mutafakkirnig to‘liq ismi, taxallusi va nasabini Sayyid Nizomiddin Muhammad Mir Ma’sum Nomiy ibn Sayyid Safoiy al-Husayniy at-Termiziy ekanligiga ishonch hosil qildik. “Sayyid”, “Mir Ma’sum”, “Husayniy” kabi unvon va nisbalar Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallam avlodidan bo‘lganligi uchun berilgan. “Nomiy” she’riyatdagi taxallusi, “at-Termiziy” nisbasi esa allomaning ajdodlari asli Termizlik bo‘lib, makonga xos nisba sifatida qullangan.

Sayyid Nizomiddin Muhammad Ma’sum Nomiy Termiziy ramazon oyining yettinchi sanasi 944/1537 yili Pokiston mamlakatining Bahakr (qadimiy Sakhar) qasabasida ziyoli oilada dunyoga kelgan. Nomiy Termiziy tarbiyasi masalasida otanasi alohida e’tibor qaratgan. Bu zot barakali umri davomida ilmiy-ijodiy ishlaridan tashqari boburiylar saroyida harbiy qo‘mondon bo‘lib faoliyat yuritgan. Shu bilan birga mohir xattot, binokor, kotib va o‘ymakorlik kasblari bilan ham shug‘ullangan. Alloma 1610 yili Pokiston jumhuriyatinnig Bahakr nomli shaharchasida kasallikdan vafot etadi. Uning maqbarasi otasi va akasi yonida joylashgan.

**Asarlari.** Mir Ma’sum turli fanlar sohasida yirik mutafakkir olim bo‘lgan. Garchi u kishi aslida davlat siyosiy arbobi, mohir ovchi, binokor va tabib bo‘lsa-da she’riyat, tibbiyot, tarix, falsafa, axloq, tasavvuf, mantiq va kalom ilmlarida o‘z zamonasining bilimdoni edi. Mutafakkir barakali umri davomida davlat ishidan forig‘ bo‘lgan vaqtlari ko‘proq mutolaa va ijod qilish bilan band bo‘lgan. Ayniqsa umrining o‘rta qismi va oxirlarida ilmiy-ijodiy ishlarga alohida e’tibor qaratgan. Bu zot hayoti va faoliyati borasida ko‘proq “Torixi Sind” asari hamda o‘g‘li Mir Buzurg tomonidan avtobiografik ma’lumot berib o‘tilgan. Bugungi kunga qadar allomadan bizgacha quyidagi asarlar meros qolganini ko‘rish mumkin.

**“Tibbiy Nomiy” asari.** Tibbiyot mavzusida ikki kitob yozgan. 1. “Tibbiy Nomiy” (“Nomiyning tibbiyoti”) asari. Mazkur asar bugungi kunda Pokistonlik olim, allomaning avlodidan bo‘lmish Munavvar Ali Sayyid Ma’sumiy shaxsiy kutubxonasida bor. “Tibbi Nomiy” asari tibbiyot ilmiga bag‘ishlangan muhim ilmiy asarlaridan biridir. Asar fors tilida yozilgan bo‘lib, inson jismi va ruhi bilan bog‘liq bo‘lgan tibbiy muolajalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Jumladan, o‘simliklar olamining



o'ziga xususiyatlari, inson jismiga foydali o'simliklar dunyosi, tabiatning noyob o'simliklari tasnifi, tanaga ozuqa bo'ladigan o'simliklar nomi, jismni sog'lomlashtiruvchi o'simliklar ro'yxati, iste'moli foydali o'simliklar, iste'moli zararli o'simliklar va dorivorlarni tayyorlash kabi mavzular yoritilgan.

**“Mufradoti Ma'sumiy”** (“Ma'sumiyning mufradoti”) asari ham tib ilmiga bag'ishlangan noyob asarlardan sanaladi. Ushbu asarda muallif tibbiy muolajarning eng afzali to'g'ri ovqatlanish, o'z vaqtidagi badantarbiya va me'yori bilan o'xlashlik ekanligini aytib o'tgan.

**“Devon”i.** Abduqodir Badavoniy: “Mir Ma'sum she'riyatda mohir bo'lib, “Nomiy” taxallusi bilan she'r yozardi. Muammo va she'riyatda mahoratli, nafosatli va oliyfitrat edi” [Badavoniy, 1865. 17]. “Torixi Sind” muqaddimasida “tibbiyotga bag'ishlangan asarlaridan tashqari she'riy devoni ham bor”ligi aytib o'tilgan. Shoir devonining bir nusxasi Pokistonlik Nur Alishoh Ma'sumiyning shaxsiy kutubxonasida saqlanib keladi. Demak, bundan kelib chiqadiki, shoirning ikkinchi yo'nalishdagi asari she'riyatga bag'ishlangan “Devon” ekan. Mir Ma'sumning ushbu devonida g'azal, qasida, masnaviy kabi janrlardagi she'rlari o'rin olgan. Insoniy axloq, pok muhabbat, ijtimomiy munosabatlar, orifona talqinlar, borliq haqida falsafiy tafakkur, tarixiy voqealar bayoni, sharqona pand-nasihat, hamd, munojot, na't kabi mavzular shoir she'riyatining asosiy qismini tashkil etadi.

Mir Ma'sum Nizomiy Ganjaviyning “Xamsa”siga tayanib masnaviy vaznida “Xamsa” yozadi. Bu asar 1604 yili yozilgani haqida “Torixi Sind” asarining muqaddimasida aytib o'tilgan. Biroq, ushbu asardan faqatgina to'rtta daftari nomi bizgacha yetib kelgan.

1. *“Ma'dan ul-afkor” (“Maxzanul asror” ta'sirida);*
2. *“Husn va Noz” (“Xusrav va Shirin” ta'sirida);*
3. *“Akbarнома” (“Sikandarnoma” ta'sirida);*
4. *“Pariy Surat” (“Layli va Majnun” ta'sirida).*

Nomiyshunos olim Umar ibni Muhammad “bu masnaviylarni “mafqud” (yo'qolgan) asarlar” – deydi.

**“Torixi Sind”.** Mir Ma'sum she'r yozishdan tashqari tarixiy mavzuda ham qalam tebratgan. Akbarshoh hukmronligi ostida bo'lgan Hindiston va Pokiston tarixiga oid mu'tabar tarixiy manbalardan biri – Mir Ma'sumning “Torixi Sind” asaridir. “Muoisirul umaro” va “Tabaqoti Akbariy” asarlarida Mir Ma'sumning tarixnavislik borasidagi iste'dodi tavsifga loyiqligi alohida qayd etilgan. “Torixi Sind” asarini ba'zi manbalarda “Torixi Ma'sumiy” nomi bilan tilga olinadi.



**Mutafakkir adabiy merosidan namunalar.** Mir Ma'sum "Nomiy", "Bakriy", "Ma'sumiy" kabi taxalluslar bilan tanilgan bo'lsa-da lekin she'riyatdagi faol taxallusi Nomiydir.

مگر ز سوزش من ناله ی نی یافت خیر  
که نفس میزندش شوعله ز سوراخ جیگر  
زاتش غیرت عشاق بترس ای زاهد  
برق آه سحری میجهد آنجا مگرز  
گفتمش عمر منی خوش مگرم گفت خموش

[Sayyid Muhammad Bakriy, 1938. 20] عمر هرچند خوشتر گزرد شیرین تر

Mazmuni: Mening nolamdan nay nolasi xabar topdimikan, ichimdan bir tuynuk olov jonimni yondirmoqda. Oshiqning juda qattiq yonishidan ey zohid qurq, bu yerdan o'tmaginki, tong ohining chaqmog'i senga tegib kul etishi mumkini. "Sen qanday yaxshi borlig'imsan" deb unga aytdim, u esa "sir saqla, umr qancha chiroyli o'tsa, lahzalar shuncha shirin bo'ladi", - deb javob berdi.

Mutafakkir barakali umri davomida bo'sh paytlarida she'r yozishni mashq qilib, mana shunday boy ma'noli g'azallar yozishga erishadi. Albatta, shoir bunga yillar davomda qalam mashqi qilgani tabiiy. Biroq, bu yerda iste'dod va badiy mahorat bilan obrazlar yaratish, falsafiy tafakkur orqali boy istilohlarni qullash har kimning qulidan kelmasligi ayon. Zero har bir ijodkor o'z dardi, jamiyat dardi, insoniyat dardi, olam dardi va oxirat dardi bilan yashaydi. Nomiy bu dunyo dardi bilan uqbo dardining mas'uliyatini sezgan holda ko'plab g'azallarida g'ayb olamining sir-sinoatlaridan so'z ochadi. Bu albatta yangilik bo'lmasligi aniq, lekin har bir ijodkorning o'ziga yarasha alohida ruhiyati, ilmu ma'rifati va tafakkur etish qobiliyati bor. Shu nuqtai nazarda Nomiy Termiziy munojot mazmunli g'azallari bevosita o'limdan keyingi olamning manzarasini tasvirlagan. Binobarin, Nomiyning g'azallari ma'no-mazmuni pok muhabbatga, ma'rifatparvarlikka, ilmsevarlikka, poklikka chaqiradi. Shoir she'rlarida ikki g'oya va ikki ruhiy holat yashirin. Yaxshilik va yomonlikka bo'lgan munosbat shoir she'riyatining asl tarozisini og'ir bosadigan ulchovdir. Ruhiy holatning birinchisi tushkunlik kayfiyati va ikkinchisi – xursandlik kayfiyatidir. Shoirla mana shu ikki ruhiyat she'rlarida bir xil takrorlangan.

Quyida shoirning g'azal va masnaviy janridan tashqari ruboiy janrida ham qalam tebratganini ko'rish mumkin:

تنها با خود در انجمن باید بود  
با خویش همیشه در سخن باید بود  
هم بلبل و هم گل چمن باید بود  
دیوانه ی کار خویشتن باید بود



Mazmuni: Anjuman ichra yolg'iz o'zing bo'lishing kerak, o'zing bilan hamisha muroqabada bo'lishing zarur. Shuningdek bulbul va chamanning gulidek bo'lish lozim, o'z ishingga oshiq kabi mehr berishing shart.

گه نالم و گه ز ناله خاموش کنم  
تا کی دل از این و آن پر از کینه کنی  
تا چند به زر سینه چو گنجینه کنی  
کار این نبود که تیره سازی دلرا  
آن کار بود که چو آینه کنی

Mazmuni: Qachongacha u kishidan bu kishidan gina-kudurat qilib yurasan, qachongacha zaru boylik bilan qalbni to'ldirasan. Qalbni xira qilish yaxshi ish emas, balki qalbni oinadek tozalasang ana shu ishdir.

**Xulosa.** Termiz adabiy maktabi uzoq o'tmish tarixga ega. Adib Sobir Termiziy, Munjik Termiziy, Vazir Abu Bakr Termiziy, Sayyid Burhoniddin Termiziy kabi namoyandalarning boy ilmiy-adabiy merosining shu zaminda yozilishi bevositi Termizda adabiy maktab X-XI asrlarda o'z faoliyatini boshlaganidan dalolat beradi. Ayniqsa, Adib Sobir Termiziy davrida Termiz zaminida adabiyot va san'at rivojlangan davr bo'lgan. Sababiki, Adib Sobir Termiziyning mukammal va boy mazmunli she'riy devon yozishiga davr ijtimoiy muhitning ta'siri katta bo'lgan. Temuriylar podshohi Shohrux Mirzo davrida Termiziy sayyidlarning ma'lum bir qismi Balx shahri Eron va Hindiston mamlakatlariga ko'chib ketishgan. Bunga misol sifatida Fathiy Termiziy, Sayyid Ali Termiziy (Pirbobo), Sayyid Muzaffar Termiziy, Mir Musavvir Judoiy Termiziy, Nomiyy Termiziy kabi zotlarning ota-bobolari Termizdan ko'chib, Eron va Hindiston diyorlarini maskan tutishgani yorqin dalildir. Ma'lumki, Boburiylar hukmronligi davrida Hindistonda diyori ilm-fan san'at va madaniyat keng rivoj topgandi. Bunga asosan Boburiylar hukmdorlarining olimu ulamo, fozilu fuzalo va shoiru shuarolarga bo'lgan g'amxo'rliqi hamda homiyligi sababdir. Diyorimizdan yetishib chiqqan ko'plab ilmu fan va adabiyot darg'alari ma'lum sabablar orqali Hind diyoriga ko'chib borishgan. Amir Xusrav Dehlaviy va Mirzo Abdulqodir Bedillar asli Shahri Sabzlik bo'lgan. Buyuk mutasavvif olim va mutafakkir Ziyouddin Naxshabiy ham asli Nasaf shahridan bo'lib, ilmiy faoliyatni esa Hindistonda davom ettirgan. Bu kabi misollar tarixda juda ko'p. Shunday ulug' zotlardan biri – Nomiyy Termiziyning ota-bobosi siyosiy-ijtimoiy omillar sababli o'z vatanidan Hindiston diyoriga ko'chib borishgan. Natijada Hindiston zaminida ilm-ma'rifat va san'atni rivojlantirishda benazir hissa qo'shishga erishgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kenjabek M. Termiz tazkirasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2001.; Shu muallif. Buyuk Termiziylar. Termiz tazkirasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2017.
2. Nomiy Termiziy. Torixi Sind. (Tas'hihi Umar ibni Muhammad). – Tehron: Astobir. 1382 h..
3. Sayyid Muhammad Ma'sum Bakriy. Torixi Sind/tas'hih Umar Muhammad Dovud Po'ta. – Tehron: Asotir, 1938.
4. Sayyid Muhammad Ma'sum Bakriy. Torixi Sind/tas'hih Umar Muhammad Dovud Po'ta. – Tehron: Asotir, 1938.
5. Sayyid Muhammad Ma'sum Bakriy/tas'hih Umar Muhammad Dovud Po'ta. – Tehron: Asotir, 1938. Abdulqodir Badavoniy. Muntaxabot tavorix/jildi 3. – Kalkutta. Fors koleji, 1865.
6. Termizlik olimlar asarlarining jahon fondlaridagi qo'lyozmalari katalogi. – Toshkent: Fan, 2018.
7. Cho'tmatov J. Termizning bezavol qal'alari yoxud Termiz tarixi. –Toshkent: Yangi nashr, 2017. b.